

Badiiy asar tilidagi tarixiy soʻzlarning funksional-semantik xususiyatlari
("Humoyun va Akbar" tarixiy romani misolida)

Ulugbek SANAKULOV

dotsent v.b.

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali
Urgut, Oʻzbekiston

Umida Normurod qizi OQMIRZAYEVA
talaba

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali
Urgut, Oʻzbekiston

e-mail: oqmirzayevaumida@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Pirimqul Qodirovning "Humoyun va Akbar" tarixiy romanida qoʻllangan oʻzbek tili leksikasining tarixiy qatlamiga tegishli soʻzlar tahlil qilinadi. Xususan, ularning shakllanishi, badiiy asar toʻqimasidagi funksional-semantik hamda uslubiy xususiyatlari, oʻrni va ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi, bugungi oʻzbek tili leksik qatlamining birliklari ekanligi toʻgʻrisida mulohaza yuritiladi.

Tayanch soʻzlar: istorizmlar, arxaizmlar, leksik, lugʻatchilik masalalari.

Функционально-семантические особенности исторических слов в языке художественного произведения (на примере исторического романа ("Хумоюн и Акбар"))

Улугбек САНАКУЛОВ

и.о. доцент

Ургутский филиал Самаркандского государственного университета
Ургут, Узбекистан

Умида Нормурод кизы АКМИРЗАЕВА
студентка

Ургутский филиал Самаркандского государственного университета
Ургут, Узбекистан

Аннотация

В данной статье анализируются слова, относящиеся к историческому пласту лексики узбекского языка, использованные в историческом романе Пириркула Кадырова "Хумоюн и Акбар". В частности, их формирование, функционально-семантические и стилистические особенности, место и значение в художественном произведении освещаются на научной основе, рассматриваются единицы лексического пласта современного узбекского языка.

Ключевые слова: историзмы, архаизмы, лексика, вопросы лексикографии.

Tarixning uzoq davrlari hamda yaqin oʻtmish jarayonlariga murojaat etilganda, oʻzbek tili leksik tizimida yuz bergan oʻzgarishlarni kuzatish mumkin. Leksik

taraqqiyot natijasida ayrim birliklar faol iste'moldan chiqib, arxaizm va istorizm qatlamini tashkil etadi. Ayni paytda, tilning ichki imkoniyatlari kengayishi hisobiga yangi leksemalar vujudga keladi va lug'aviy tarkib boyib boradi.

Mazkur tadqiqotning obyekti sifatida "Humoyun va Akbar" romani tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida ushbu asar negizida yangi ilmiy xulosalar ishlab chiqish hamda mavjud nazariy qarashlarni takomillashtirish maqsad qilindi. Ishning asosiy maqsadi roman matnida qo'llangan arxaizm va istorizmlarning badiiy-estetik vazifasini aniqlash, ularning matn tarkibida tanlanish xususiyatlari, kontekstual qo'llanishi hamda badiiy tasvir vositalari bilan uyg'unlashuvi orqali namoyon bo'ladigan til mahoratini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat. Shuningdek, mazkur birliklarning badiiy asardagi funksional yuklamasini ochib berish orqali o'quvchilarning intellektual va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqish tadqiqotning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, ta'lim jarayonida badiiy matn asosida til hodisalarini tahlil qilish bugungi kunda dolzarb pedagogik yo'nalishlardan sanaladi. Tadqiqotni amalga oshirishda o'zbek tilining izohli lug'atidagi leksik birliklarni tasniflash, qiyosiy-tahliliy hamda kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi.

Jamiyat va tilning tarixiy taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-ma'naviy hayotga oid ayrim tushunchalar o'z semasini yo'qotib, passiv leksik qatlamga o'tadi. Bu hodisa til tizimining dinamik xususiyati bilan izohlanadi. Xususan, badiiy asarlarda muayyan tarixiy davr voqeligi aks ettirilganida, o'sha davrga xos leksik birliklarning hozirgi davr til tizimida semantik, funksional yoki nominativ jihatdan o'zgarishga uchragani, ayrim hollarda esa ularning o'rnini boshqa faol birliklar egallagani kuzatiladi. Tilshunoslikda mazkur turdagi birliklar arxaizmlar va istorizmlar (tarixiy so'zlar) sifatida tasniflanadi. Ilmiy manbalarda arxaizmga "Arxaizm o'zi nomlayotgan voqelikni anglatuvchi leksik birlik bilan yonma-yon yashaydi" [1]. Demak, arxaizm o'z zamonaviy muqobili bilan parallel ravishda mavjud bo'lib, asosan uslubiy vazifa bajaradi. Istorizmlar esa o'zi ifodalagan voqelikning tarix sahnasidan chiqib ketgani bilan xarakterlanadi; ya'ni

bunday birliklarning zamonaviy muqobili mavjud bo'lmaydi. Shu jihatdan arxaizm va istorizm o'rtasidagi asosiy farq nominativ asos va referensial voqelik bilan bog'liqdir. Badiiy matnda arxaizmlarning qo'llanilishi tarixiy davr yaratish, davr ruhini ifodalash, tasvirning realizmini kuchaytirish hamda muallifning estetik niyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Ayrim arxaik birliklar zamonaviy muqobillariga nisbatan yuqori darajadagi ekspressivlik va semantik intensivlikka ega bo'lib, matnda obrazlilikni oshirish funksiyasini bajaradi. Hozirgi o'zbek tilshunosligida, xususan, izohli va ensiklopedik lug'atlarda arxaizm sifatida qayd etilgan leksik birliklarning muayyan qismi arab tilidan o'zlashgan qatlamga mansub ekani aniqlanadi. Bu holat o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti va uning boshqa tillar bilan o'zaro aloqadorligi natijasida shakllangan leksik tarkibining murakkab qatlamli tuzilishini ko'rsatadi.

Arxaizmlar va istorizmlar Pirimqul Qodirovning "Humoyun va Akbar" romanida keng qo'llanilgan leksik qatlamni tashkil etadi. Mazkur birliklar asar voqealari bayonida hamda personajlar nutqida izchil ravishda uchraydi. Ularning qo'llanilishi tasvirlangan tarixiy davrning ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy muhitini qayta tiklashda muhim uslubiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Arxaik va tarixiy leksikaning matnda faol ishtiroki asarning tarixiylik darajasini ta'minlash, davr ruhini yaratish hamda qahramonlar nutqini individuallashtirishga xizmat qiladi. Natijada muallif tomonidan tasvirlangan zamon ruhiyati, ijtimoiy munosabatlar tizimi va maishiy tafsilotlar lingvopoetik jihatdan asoslangan holda ifodalanadi. Shu bois mazkur leksik qatlam romanning badiiy-estetik qiymatini oshiruvchi hamda tarixiy realizmni kuchaytiruvchi muhim omillardan biri sifatida baholanadi.

Romanda uchraydigan arxaik birliklar ilgari surilgan nazariy qarashlarning amaliy ifodasi hisoblanadi. Asarda qo'llangan mazkur leksik qatlam tasvirlangan davrning til xususiyatlarini aks ettiradi va tarixiy voqelikni tabiiy shaklda ifodalashga xizmat qiladi.

Quyidagi "Humoyun va Akbar" tarixiy romanidagi arxaizmlar fikrimizga dalil bo'la oladi:

Amaldor– mansab-amal egasi, lavozimli shaxs. – *E, podsho osmonda, otam yer*

ostidagi zindonda! Ikki orani poraxo‘r amaldorlar bilan aldamchi shayxlar to‘sib olmishlar [1;20].

Darra–bambukdan qilingan maxsus tayoq. Mavkabdan oldinda darra ko‘targan qo‘riqchilar yo‘l ochib boradi. Ular bilan ketma-ket nog‘orachi va karnaychilar kelyapti [1;21].

Faqih – qonunshunos. Hamidaning otasi faqih Mirbobo Do‘st asli toshkentlik edi, Shayboniyxon qirg‘inlarida Xurosonning Jom shahriga kelib qolgan va shu yerlik qizga uylangan edi [1;8].

Inoyat – iltifot, mehribonlik; g‘amxo‘rlik, parvarish. «Balki men... hazratning inoyatiga sazovor bo‘lsam «Nizomning begunoh otasini hibsdan chiqartiring» deb iltimos qilarmidim?» degan o‘y Hamidaning ko‘nglidan o‘tdi [1;20].

Izdihom – odamlar to‘dasi, olomon. Lekin xiyobonning ikki chetida zanjirday tizilib borayotgan otliq qo‘riqchilar izdihomni mavkabga yaqin keltirmaydi [1;22].

Munir– yorug‘ yuz, yorug‘lik. Zarrasifat o‘zni bilurman haqir, Sendin tushsa nur bo‘lurmen munir [1;24].

Murid – izdosh, ergashuvchi, shogird, sufiylar shogirdi. U Said Xalilning ishongan muridlaridan bo‘lgani uchun navro‘z kunida podsho filini o‘zi mingisi kelib ayg‘oqchilik qilgani aniq [1;27].

Muslin – eng nafis ipak mato. Chevarlikdan xabari bor ona bugundan boshlab Hamida uchun qimmatbaho atlas-u muslinlardan yangi kiyimlar tikishga tushdi [1;13].

Muvaqqat – muayyan vaqtga belgilangan; vaqtincha, qisqa vaqtli. Lekin bu yarashish muvaqqat, chunki Komron hali Laxo‘rdan chiqib ketgan emas [1;24].

Nadima – yaqin, sirdosh, dugona, hamsuhbat ayol. Hamidaning o‘zi ham Sultonim beginning tengdosh nadimalari qatorida yuradi [1;10].

Otliq - ot mingan, suvoriy, otliq askar. Beginning parishon nazari tushib turgan ko‘kalamzor maydonda esa bir to‘p otliq qizlar chavgon o‘ynamoqda [1;4].

Qilich – bir tig‘li, g‘ilof (qin) bilan yonga osiladigan, chopish, sanchish bilan yovga shikast etkazadagan qurol. Daryo bo‘yidagi to‘y xursandchiligi avjiga chiqqan

paytda birdan ellik-oltmish otliq navkar qamchi o'ynatib, qilich yalang'ochlab kirib keldi [1;19].

Qozi – ijro etuvchi, hukm chiqaruvchi. Bu she'rni eshitgan qozi-yu sadrlar, muhtasiblarning sochi tikka bo'lib ketdi [1;29].

Ra'd – yashin va momaqaldiroq. Sel emasdur yer yuzin tutkon ko'zimning yoshidur, Ra'd emasdur ko'kka chirmoshqon ko'ngul afg'onidur [1;10].

Sayisxona – otxona. «Sarkori havoyi» deb atalgan vazir saroy ta'minotiga, oshxona, sayisxona, kiyim-kechak ishlariga mutasaddi [1;31].

Ulufa – ish haqi, maosh. Sultonim begimga mashhur dostonlar va hikoyatlardan o'qib beradi-yu, buning evaziga durustgina in'om va ulufa oladi [1;9].

Xufiya – yashirinlik, maxfiylik, sirini boshqalarga aytmaslik. Holbuki, u soppa-sog' ekanini, Laxo'rda o'zi ham Askariy bilan navro'z sayliga chiqmoqchiligini Humoyun ishonchli xufiyalar axborotidan biladi [1;25].

Shomiyona – bu yerda guldin qilingan chodir yoki chimildiq ma'nosida. Keling-kuyov oq, sariq, pushtirang gulshodalardan to'qilgan maxsus shomiyonaga kirib o'ltirdilar [1;19].

Chavkar – ola-bula; qora xolli, xol-xol (ot tusi haqida). Otbegiga ayting, chavkarni oltin anjomlari bilan olib kelsin! – deb buyurdi [1;12].

Istorizmlar ya'ni tarixiy leksema hozirgi o'zbek tilida qo'llanuvchi o'tmishga oid, iste'moldan chiqib ketgan narsa-hodisani bildiruvchi leksimadir. Istorizmlar struktur-semantik xususiyatiga ko'ra leksik, semantik va frazeologik ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Ularning asosiy belgisi – referensial asosning tarixda qolganligi hamda sinonimik almashtirish imkoniyatining mavjud emasligidir. Bundan tashqari, istorizmlarni o'rganishda leksikografiyani o'rni beqiyos. Chunki o'zbek tilshunosligida leksikografiyaning bu tarmog'ini takomillashtirish davlat ahamiyatidagi yuqori masala sifatida kiritilgan va mana shu xatti-harakatlar samarasi o'laroq o'zbek o'quv lug'atchiligi yuqori pog'onaga ko'tariladi va ulkan yutuqlarni qo'lga kiritadi [2]. Shu bois istorizmlar tilning tarixiy qatlamini tashkil etib, asosan tarixiy va badiiy matnlarda davr ruhini yaratish hamda voqelikni aniq ifodalash

vazifasini bajaradi. “Ular nafaqat, fikr ifodasi, balki tarixiy davrni jonlantirish vositasi, nutq egalarining ruhiyati, dunyoqarashi, salohiyati va madaniyati kabi xususiyatlarini ham namoyon qiluvchi muhim omildir” [3]. Bundan tashqari, badiiy asar tilidagi eskirgan soʻzlarni tahlil qilishda asar yozilgan davrni eʼtibordan chetda qoldirmaslik lozim. Chunki, "soʻzlar yozuvchi yashagan, ijod qilgan davridayoq eskirgan boʻlishi mumkin boʻlganidek, asar yozilgan davrda faol isteʼmolda boʻlib, keyinchalik isteʼmoldan tushgan" [4] boʻlishi mumkin.

Quyida “Humoyun va Akbar” tarixiy romanida qoʻllanilgan istorizmlar:

Amir – hokim, hukmdor, boshliq. *Junayd barlos nomli ulkan amirning oʻgʻli boʻlgan bu bekszoda Hamidaga sovchi ham yubordi* [1;11].

Begim– (bek, xon)ning xotini yoki qizi, shoh oilasidan boʻlgan ayolga nisbatan ishlatiladi. *Har bir begim siqimiga siqqanicha oltin olganini, boshqa yoshroq qizlar orasiga oltin-kumush tangalar sochqi tarzida sochilganini Hamida bonu oʻz koʻzi bilan koʻrgan* [1;6].

Bek– saroy lavozimlaridan biri. *Axir bu qizlar eng nufuzli bek-u aʼyonlarning oilasidan* [1;5].

Bekzoda – bek naslidan chiqqan, beklar zurriyodidan, aslzoda, obroʻli nasldan. *Shunda Sultonim begim Hamidaga oshiq boʻlib sheʼriy maktublar yozgan bir bekdodaning tarixini onasiga aytib berdi* [1;11].

Filbon – fil boquvchi va filni harakat paytida boshqaruvchi kishi. *Lekin Said Xalilga gap yetkazgan filbon Inoyatxon ham murodiga yetmasligi kerak* [1;27].

Haram– hovlining ayollar uchun ajratib qoʻyilgan qismi, ichkari (asosan, oliy, yuqori mansabdorlar xonadonlarida). *Shuning uchun Hamidaning onasi Hindol mirzoning haramida qissaxon boʻlib xizmat qiladi* [1;9].

Kaniz – xon, amir va boshqa hukmdorlar saroyidagi xizmatchi ayol. *Endi u bilan yaqindan tanishgisi keldi-yu, oʻyin tugagandan keyin kanizini yuborib, Hamida bonuni tologa chaqirtirdi* [1;7].

Kanizak – yosh choʻri, yosh oqsoch. *Mana hozir ham u bogʻning uzoq burchagidagi xilvat sohilga kanizagi Aminat bilan birga keldi* [1; 15].

Mavkab -- podshoning a'yonlari va mulozimlari. Biroq butun Agra aholisi va boshqa viloyatlardan kelgan yuzlab odamlar shahar markazidan o'tayotgan Humoyun mirzo va uning mavkabini yaqinroqdan tomosha qilishga intilmoqda edi [1;21].

Muhtasib – diniy ishlar nazoratchisi. Qo'lida darra bilan yurib, odamlarning ro'za tutishi-yu masjidga namozga kelishini nazorat qilgan. Otangizni johil muhtasiblar adashtirgan, — dedi Nizom. — Ular bizning boshimizga ham qancha kulfatlarni soldilar [1;18].

Muxolif – teskari, qarama-qarshi, itoatsiz, dushman. Ular Xonzoda begimday mashhur kayvoni o'yinga qarab turganidan ruhlanib, jon-jahdlari bilan chavgon to'pini muxoliflar dvozasiga kiritishga intiladilar [1;4].

Navkar – harbiy xizmatkor, askar. Eron shohining navkarlari bilan bo'lgan janglarda asir olingan va qul bozorida sotilgan bu jabrdiyda juvon besh yildan beri Hamidaga kaniz bo'lib xizmat qiladi [1;15].

Toj — toj egasi, taxt egasi, tojdor, hokim. Xonzoda begim uzoq umri davomida Shayboniyxon-u shoh Ismoilidan tortib temuriy tojdorlargacha qancha-qanchasining oilaviy hayotlarini yaqindan ko'rdi, ne-ne mashhur malikalarning toj-u taxt balolariga bardosh berolmay shikast yeganlariga guvoh bo'ldi [1;12].

Tojdor – toj egasi, toj-taxt sohibi, toj kiygan, taxtga o'tirgan hokimi mutlaq, podsho. Xonzoda begim uzoq umri davomida Shayboniyxon-u shoh Ismoilidan tortib temuriy tojdorlargacha qancha-qanchasining oilaviy hayotlarini yaqindan ko'rdi, ne-ne mashhur malikalarning toj-u taxt balolariga bardosh berolmay shikast yeganlariga guvoh bo'ldi [1;12].

Tolor — yozgi shiypon. Mana shu gulmohurlar yonidagi tillakori tolorda yoshi oltmishlardan oshgan, sochlari oqarib, jussasi kichik bo'lib qolgan Xonzoda begim xomush bir qiyofa bilan yolg'iz o'tiribdi [1;4].

Shig'ovul — saroydagi qabul marosimlarini boshqarish va nazorat qilish bilan shug'ullangan mansabdor shaxs. Qirq yoshlardagi qo'li uzun shig'ovul otini chuchulab, olomon bilan qo'riqchilar tirashib turgan joyga yaqinlashar ekan, egariga ortilgan gilam xurjunning o'ng ko'zidan bir siqim kumush tanga oldi [1;22].

Shudra – eng past to‘rtinchi tabaqa – kasta. *Unga ko‘proq kosiblar, hammollar va boshqa oddiy kishilar kiradi. Nizomning otasi o‘zining katta o‘g‘liga hindlarning eng ezilgan shudra qavmidan chiqqan eshkakchi do‘stining qizini olib bermoqchi bo‘ladi* [1;18].

Chavgon – uchi egri qilib tayyorlangan maxsus tayoq, shu tayoq va to‘p bilan ot ustida o‘ynaladigan jamoaviy sport o‘yini. *Beginning parishon nazari tushib turgan ko‘kalamzor maydonda esa bir to‘p otliq qizlar chavgon o‘ynamoqda* [1;4].

Chavgoncho‘p – chavgon sport o‘yinida qamchi o‘rnida foydalaniladigan cho‘p. *Xonzoda begim shuni o‘ylab, o‘yinni hayajon bilan kuzatgani sari qizlar xavf-xatarni unutib, to‘daga dadil tashlanishar, qamchi o‘rniga chavgoncho‘p bilan otlari sag‘risiga urib, muxolif tomonga hamla qilishardi* [1;5].

Xulosa qilib aytganda, keltirilgan misollardagi arxaizmlar va istorizmlar asar matniga tarixiy bo‘yoqlarni bera olganligi bilan ahamiyatlidir. Yuqorida keltirilgan arxaizmlar va istorizmlar "Mehrobdan chayon" tarixiy romanida faol qo‘llanilgan bo‘lib, asar voqealari tasvirlangan davr ijtimoiy hayotining haqqoniy ifodasini ko‘rsatishga xizmat qilgan. Yozuvchi o‘sha davrga xos so‘zlar, ya‘ni istorizmlardan o‘z o‘rnida foydalanib, tarixiy davr hayot haqiqatini yorqin aks ettirishga erishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Қодиров П. Авлодлар довоғи. Роман. – Тошкент, 2020.
2. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006.
3. Rahimov B.S, Yormatov F.J. Toponomical analysis of Khatak and Dahparakent villages //Ўтмишга назар журнали, 2019. 19-бет.
4. Саидова А.С. Язык является главным приоритетом в обучении //Европейский журнал инноваций в неформальном образовании, 2022. – С.108-110.
5. Худойбердиева Н.А. "Навоий" романида диалогнинг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. – Тошкент, 2014.